



IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **69,9 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida **4 825** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,6 foizni** tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 740 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 079 ta, sanoat tarmog'ida 557 ta, yashash va ovqatlanishda 367 ta, qurilish tarmog'ida 246 ta, tashish va saqlashda 121 tani tashkil etilgan.



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 69,9 foizi (2024- yil yanvar-dekabrda 70,0 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 19 668,5 mlrd. so'mni (41,2 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 821 tani tashkil etdi);



47 491,1 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 91,2 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4 383 tani tashkil etdi;



15 744,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 39,5 foizi) 2024- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 96,0 foizni tashkil etdi;



12 464,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 70,6 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 1 939 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,5 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 90,1 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 3,4 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 95,0 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 780 tani tashkil etdi);




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 95,0 foizi yoki 29 327,4 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 22,9 foizi yoki 9302,1 mlrd. so'mni, tashkil qildi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 9 559 ta.




188,8 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 36,8 foizi) 437,7 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 60,1 foizi) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	47 491,1	91,2
Sanoat	19 668,5	41,2
Qurilish	12 464,2	70,6
Chakana savdo	29 327,4	95,0
Yuk tashish, mln tn.	48,4	89,7
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	349,9	91,1
Ekspart, mln. AQSH doll.	188,8	36,8
Import, mln. AQSH doll.	437,7	60,1

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2025- yil 1- dekabr holatida 44 027 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (35,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (21,2 %), sanoat (13,5 %), qurilish (8,5 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,1 %), tashish va saqlash (2,8 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (2 275,9 mlrd. so'm), Nishon (1 704,5 mlrd. so'm), Qarshi (1625,1 mlrd. so'm), Mirishkor (957,9 mlrd. so'm) va Chiroqchi (948,1 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (7 503,0 mlrd. so'm), Shahrisabz (2351,8 mlrd. so'm) shaharlari va Koson (2 354,8 mlrd. so'm) va Qamashi (1 936,5 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 69,9 foizni tashkil qilib, 2024- yilning mos davrida 70,0 foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), Qamashi (95,6 %) tumanlari va Shahrisabz shahriga (86,6 %) hamda eng past ulushi Nishon (9,7 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Qarshi shahri (32,0 %), Shahrisabz shahri (56,6 %), Muborak (73,6 %), Dehqonobod (84,4 %), Ko'kdala (82,5 %) va G'uzor (71,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.